

"MONEY AND BANKS" COURSE

Topic - 9: CURRENCY SYSTEM AND CIRCULATION OF MONEY IN INTERNATIONAL RELATIONS

«PUL VA BANKLAR» FANI

Mavzu - 9: VALYUTA TIZIMI VA PULNING XALQARO MUNOSABATLARDAGI HARAKATI

Reja:

- 9.1. Valyuta tizimi va uning elementlari
- 9.2. Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari
- 9.3. Valyuta kursi turlari va unga ta'sir etuvchi omillar
- 9.4. Xalqaro hisob-kitoblar va ularning shakllari

9.1. Banklarning iqtisodiyotda tutgan o'рни va ularning funksiyalari

Valyuta tizimi davlatlararo bitim yoki milliy qonunlarga muvofiq valyuta munosabatlarini tashkil qilish va boshqarish shakllarini o'z ichiga oladi. Valyuta tizimining quyidagi turlari mavjud. Bular – milliy, jahon va xalqaro (mintaqaviy) valyuta tizimlaridir.

Sanoati rivojlangan davlatlar iqtisodiyotlari o'rtasidagi integratsiyaning chuqurlashuvi sharoitida valyuta tizimi jahon xo'ja-lik aloqalarida muhim va mustaqil o'rin tuta boshlayapti. Valyuta tizimi mamlakatning iqtisodiy holatiga bevosita ta'sir etadi (ya'ni ishlab chiqarish omillari, sur'atlariga, narxga, ish haqiga va boshqalarga).

Milliy, jahon va xalqaro (mintaqaviy) valyuta tizimlari tushunchalari bir-biridan farqlanadi.

“Milliy valyuta tizimi – tarixan yuzaga kelgan bo'lib, alohida olingan davlatning valyuta munosabatlarini qonun asosida tashkil qilish va boshqarish munosabatlarini o'z ichiga oladi. Milliy valyuta tizimining elementlari milliy valyuta, valyuta zaxiralari hajmi va tarkibi, valyuta pariteti va milliy valyuta kursi, valyutani konvertirlash shartlari, mamlakat valyuta munosabatlarini boshqaruvchi milliy mahkamalar va tashkilotlar maqosi, valyuta va oltin milliy bozorlarining faoliyat yuritish shartlari, valyuta nazorati, valyutaviy cheklanishlar bor-yo'qligi qoidalarini, xalqaro kredit vositalarini milliy pul aylanishida qo'llash qoidalari va boshqalar hisoblanadi. Milliy valyuta tizimi mamlakat pul tizimining asosiy qismini tashkil qiladi” (Абдуллаева, 2003, b.110).

Milliy valyuta tizimini quyidagi elementlar kiradi:

- milliy valyuta;
- milliy valyutaning konvertatsiyalanishi shartlari;
- milliy valyutaning valyuta pariteti rejimi – ikki valyuta o'rtasidagi nisbatan;
- milliy valyuta kursi rejimi (belgilangan va o'zgaruvchi);
- valyuta cheklovlarining mavjudligi yoki mavjud emas
- mamlakatning xalqaro valyuta likvidligini milliy tartibga solish;
- xalqaro kredit mablag'laridan foydalanishni tartibga solish;
- mamlakatning xalqaro hisob-kitoblarini tartibga solinishi
- milliy valyuta bozori va oltin bozori rejimi;
- mamlakatning valyuta munosabatlarini boshqaruvchi va tartibga soluvchi milliy organlari (markaziy bank, moliya vazirligi, maxsus organlar) (Абдуллаева, 2003, b.89).

Hozirda O'zbekiston Respublikasida "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonunga (22.10.2019) muvofiq Valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

- valyuta qadriyatlariga egalik va boshqa huquqlarni o'tkazish va valyuta qiymatlaridan to'lov vositasi sifatida foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar;
- valyuta boyliklarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va o'tkazish, shuningdek O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish va olib o'tish;
- xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish; rezidentlar va norezidentlar o'rtasida milliy valyutadagi operatsiyalar.
- Tozalangan oltin quymalarini O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga kiritish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Mintaqaviy valyuta tizimi elementlari tegishli shartnoma shartlari asosida aniqlanadi.

Jahon valyuta tizimi quyidagi elementlarini, ya'ni xalqaro to'lov vositalarining ma'lum bir yig'indisi, valyuta kurslari va valyuta pariteti, konvertirlash shartlari, xalqaro hisob-kitob shakllari, xalqaro valyuta va oltin bozorlari rejimi, xalqaro va milliy bank tash-kilotlari, xalqaro kredit vositalarini muomalada qo'llash qoidalarini, valyuta cheklovlarni davlatlararo boshqarish.

Xalqaro valyuta tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

jahon pullarining funksional shakllari (oltin, zaxira valyutalari, xalqaro hisob valyuta birliklari);

valyutalarning o'zaro konvertatsiyalanishi shartlari;

valyuta paritetlari va valyuta kurslari rejimini birlashtirish;

valyuta cheklovlarni davlatlararo tartibga solish;

xalqaro valyuta likvidligini davlatlararo tartibga solish;

xalqaro kredit vositalaridan foydalanish qoidalari (veksel, chek va boshqa) va xalqaro hisob-kitoblar shakllarini birlashtirish;

jahon valyuta bozorlari va oltin bozorlari rejimi;

davlatlararo valyuta tartibini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar usullari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro va mintaqaviy valyuta tizimlarining asosi xalqaro mehnat taqsimoti, tashqi savdo hisoblanadi.

Jahon valyuta tizimi o'z ichiga valyuta instrumentlari (vositalari)ning amal qilishini ta'minlovchi xalqaro kredit – moliya muassasalari va xalqaro bitim hamda davlat huquqiy me'yorlari majmualarini o'z ichiga oladi.

Mintaqaviy valyuta tizimi rivojlangan davlatlarning jahon valyuta tizimi chegarasida tashkil etiladi. Masalan, Yevropa valyuta tizimi – YeVT bir qator Yevropa davlatlarining valyuta sohasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlari shakli sifatida namoyon bo'ladi va faoliyat ko'rsatadi.

Valyuta mexanizmi samaradorligi, davlatning va xalqaro valyuta-moliya muassasalarining valyuta, pul va oltin bozorlariga aralashish darajasi iqtisodiy o'sish, davlatning tashqi iqtisodiy strategiya-siga ta'sir etadi.

Valyuta tizimi ahamiyatining o'sishi rivojlangan mamlakatlar-ning milliy va mahalliy doirada valyuta sohasida davlat monopo-listik boshqaruvining yangi usuli va vositalarini izlashga majbur etmoqda.

"Jahon valyuta tizimi (JVT) va uning evolyusiyasi. Rivojlangan davlatlarning valyuta tizimi nafaqat ular o'rtasi-dagi pul hisob-kitob munosabatlarini, balki ichki pul muomalasi-ning katta qismini ham o'z ichiga oladi. JVT oltin standartga asoslangan tizimdan asta-sekin maqsadli boshqariladigan, qog'oz-kredit pullariga asoslanadigan tizimga aylandi. Shu bilan birga, uning rivojlanishi (o'n yilliklar farqi bilan) milliy pul tizimining

rivojlanish bosqichlarini takrorlaydi. Ichki iqtisodiyotda pul tizimi oltin tanga standartidan oltin quyma va oltindeviz, undan kredit-qog'oz pul muomalasiga o'tdi va oxirgi bosqichda ko'proq e'tibor kredit vositalariga qaratiladigan bo'ldi") (Абдуллаева, 2003, b.111).

Jahon valyuta tizimi o'z rivojlanishida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. har bir bosqich tizim faoliyatining asosiy tamoyillari bilan farqlanadi, lekin oldingisiga nisbatan ma'lum bir uzluksizlikka ega.

"Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari quidagilarilar:

- Parij valyuta tizimi (1867 yildan 1920 yilgacha)
- Genuya pul tizimi (1922 yildan 30-yillargacha)
- Bretton-Vuds pul tizimi (1944 yildan 1976 yilgacha)
- Yamayka valyuta tizimi (1976-1978 yildan hozirgi kungacha)" (Абдуллаева, 2003, b.89).

Jahon miqyosida bu holat keyinroq maxsus shakllarda namoyon bo'ldi. Bunda oltin-tanga standarti mutlaqo bo'lmagan, oltin quyma standarti asrlar davomida mavjud bo'lgan; oltin bilan bir qatorda yordamchi kredit pullari veksel', chek va boshqa ko'rinishida rivojlangan. Ammo XX asr boshiga kelib, bu tizim xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi shakliga javob bermay qoldi. Bu davrning eng asosiy belgilaridan biri kapitalni eksport qilish – JVT ning yangi oltin standart shakllari bilan qarama-qarshilikka uchradi. Bundan tashqari, oltin zaxiralari tez rivojlanib borayotgan dav-latlar xazinasida to'plana bordi. Shuning uchun ham, davlatlar o'rta-sida yangi boshqariladigan valyuta tizimi zarur edi. 30-yillarining ikkinchi yarmida oltin standart shakllari o'rniga qog'oz-kredit pul muomalasi keldi. U davlatga emissiya mexanizmidan iqtisodiyotni boshqarish vositasi sifatida foydalanish imkonini berardi.

Xalqaro valyuta tizimi rivojlanishining muhim bosqichi Ikkinchi Jahon urushidan keyin boshlandi. Ikkinchi Jahon urushi oltin zaxiralarning yangi taqsimotiga olib keldi.

Barcha davlatlarning deyarli 4/5 oltin zaxiralari AQShda to'p-landi. Dollarning JVTda yetakchi o'rindaligi, oltindeviz standartining oltin dollar shaklini olganligidan dalolat berardi.

Bu holat rasmiy ravishda 1944 yil iyulda Brettonvudsdagi (AQSh) BMT Konferensiyasida tasdiqlangandi. Unda urushdan keyingi Jahon valyuta tizimiga asos solindi.

JVTning tashkiliy va faoliyat tamoyillari quyidagilar qilib belgilandi:

- oltin JVTning asosi sifatida tan olindi;
- dollar va funt-sterlingga xalqaro hisob-kitoblarda va chet el valyuta zaxiralarda asosiy o'rin berildi va ularni oltin o'rniga taqdim etilishi mumkinligi tasdiqlandi;
- dollarga nisbatan barcha mamlakat valyutalarining qat'iy pari-teti o'rnatildi, dollar orqali esa – oltinning va chet el valyutalari-ning bir- biriga nisbatan bahosi aniqlanadigan bo'ldi;
- valyuta kursining dollar paritetiga nisbatan tebranishi = 1 % darajasida belgilandi;
- JVT ni boshqarish maqsadida Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) va Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot banki (XRTB) tashkil etildi;
- valyuta cheklovi tizimi bekor qilinib, milliy valyuta kon-vertasiyasi tiklandi.

Bu shaklda tuzilgan, II Jahon urushidan keyingi JVT xalqaro valyuta- moliya munosabatlaridagi tartibsizlikni yo'qotishga imkon berdi.

Ammo Brettonvuds tizimining qarama-qarshiligi – tartibsiz bozor (oltinstandart) va boshqariladigan dollar tizimi bo'yicha ish yuritish quyidagilarga olib keldi:

- o'zgarmas oltin narxi va narxi o'suvchi tovar va xizmatlar orasida farq yuzaga kelishiga;
- AQShdan ko'p miqdordagi kapitalning boshqa davlatlarga oqib ketishiga (1957-

1971 yillarda 54,2 mlrd. dollar miqdorida to'g'ri investisiyalar tarzida AQShdan boshqa davlatlarga oqib o'tgan);

- chet ellardagi katta harbiy xarajatlarga;
- AQShning to'lov balansi taqchil bo'lishiga (uning miqdori 1953-1972 yillarda – 69 mlrd. dollarni tashkil qilgan);
- dollarning real kursi va uning oltin pariteti orasida uzulishning bo'lishiga va boshqalar.

Bundan tashqari, 60-yillarning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropa va Yaponiya AQShdan o'z oltin zaxiralari va eksport hajmi bo'yicha ikki baravar oshib ketdi. Natijada, hatto oltindeviz standarti taya-nadigan umumiy iqtisodiy asos o'z umrini tugatdi. Oltin dollar standartining buzilishi valyuta bozorlarida dollarning «tushishi» va «valyuta isitmasi» degan iboralar tarzida o'z aksini topdi.

Shuning uchun 1970 yilda XVF chegarasida maxsus hisob va to'lov birligi (SDR) kiritildi va u a'zo - davlatlarning valyuta zaxira-larini to'ldirish uchun mo'ljallangandi. SDR jahon pulining bir qator funksiyalarini bajaradigan bo'ldi. U XVF a'zolarining kvotalariga proporsional tarzda taqsimlanadi, shuning uchun uning asosiy qismi (2/3 dan 3/4 gacha) rivojlangan davlatlarga, 1/4 qismi rivojlanayotganlariga to'g'ri keladi. SDR ning boshlang'ich kursi AQSh dollarining rasmiy oltin miqdoriga tenglashtirilgan.

Keyinchalik uning qobiliyati 16 valyuta savati bo'yicha, hozirda esa 5 asosiy milliy valyutalar bo'yicha aniqlanadi. SDR JVTning asosiy zaxira vositasiga aylanmokda.

Bu sharoitda AQSh ikki marta dollar deval'vasiyasini o'tkazdi (1971 va 1973 yillarda). Natijada oltinning rasmiy kursi troya unsiyasi 42,22 dollargacha qilib belgilab berildi. Bu davrda ko'p-chilik rivojlangan davlatlar o'z valyuta kursini ma'lum darajada ushlab turish (dollarga nisbatan) majburiyatlaridan voz kechibdi.

1973 yildan oltin - maxsus oltin va tovar birjalaridagi narx asosida sotiladigan va sotib olinadigan bo'ldi. Oltin narxi JVTga bevosita ta'sir o'tkazmaydigan bo'ldi.

Bu sharoitda xalqaro valyuta munosabatlarini qayta tashkil qilish muammosi vujudga keldi. 1976 yil yanvarda XVFning Vaqtli Qo'mitasi XVF Nizomiga bir qator o'zgarishlarni kiritdi. Bu o'zgarishlar XVTi faoliyatini rasmiy ravishda qayta taqsimlashni bildirardi (Yamayka kelishuvi, 1976- 1978 yy.). Valyuta munosabatlari mexanizmidagi o'zgarishlar 1978 yil 1 apreldan kuchga kirdi va u quyidagilardan tarkib topgandi:

- oltinning rasmiy narxi bekor qilindi (XVFning mavjud oltin zaxirasi 33 foizining 1/6 qismini ochiq auksionlarda sotib va yana 1/6 qismini a'zo davlatlarga tarqatish yo'li bilan hisobdan chiqarishgandi);

«SDR JVTning asosiy zaxira aktiviga rasmiy ravishda aylantirildi.

Valyuta kurslarining «suzuvchi» tizimi qonunlashtirildi. A'zo davlatlar o'z valyuta paritetini SDR yoki boshqa chet el valyutasida ifodalay olishi mumkin edi (ammo oltinda emas).

Xalqaro valyuta boshqarish sohasi kengaytirildi. Buning uchun XVF qoshida iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish bo'yicha a'zo-davlatlar vazirlari darajasida qo'mita tashkil etildi.

Tashkil topgan valyuta tizimi ko'p jihatdan XX asrning 70-yillaridagi jahon xo'jaligining o'zgargan sharoitlariga javob berardi.

Mintaqaviy valyuta tizimi (MVT) G'arbiy Yevropa valyuta integratsiyasining chuqurlashuvi Yevropa valyuta tizimining (EVT) vujudga kelishiga olib keldi. Bu valyuta tizimi mintaqaviy valyuta tizimi (MVT) bo'lib, u JVTning elementlaridan biridir.

SDRdan farqli ravishda EKYu bank va firmalarning xususiy operatsiyalarida qo'llaniladi. Milliy valyutalar kvotasi - EKYuning tashkil etuvchilari - mamlakatning iqtisodiy potentsiali bilan aniqlanadi va har 5 yilida qayta ko'rib chiqiladi. «Savat»ni qayta ko'rib chiqishda hamma aktiv va passivlar yangi kurs bo'yicha qayta baholanadi» (Абдуллаева,2003, b.90).

Yamayka valyuta tizimidan farqli ravishda, YeVT oltindan EKYu-ning ta'minoti

sifatida kisman foydalanadi va a'zo mamlakat-larning rasmiy oltindollar zaxiralarining 20 foizini birlashtiradi.

Valyuta kurslari rejimi valyutalarning belgilangan chegarada suzishiga asoslangan (asosiy kursdan = 2,25 %, Italiyada beqarorlik tufayli 6 %).

Erkin konvertasiya qilish va kapital oqib o'tishi sharoitida mamlakatlarda ichki pul muomalasi va xalqaro to'lov aylanmasi o'rtasidagi chegaralar yo'qolmoqda/

Milliy va xalqaro pul-kredit bozorining birgalashishi tendensiyasi milliy pul-kredit bozorlarining o'ziga xosligi, ixtisosligini saqlagan holda rivojlanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar valyuta siyosati yagona va o'zaro bog'liq dunyoda amal qiladi. Shuning uchun uchinchi davlatlar omili unga qanday darajada ta'sir etishini aniqlash lozim. So'z asosan rivojlanayotgan davlatlar to'g'risida bormoqda. Ko'pchilik Sharqiy Yevropa va MDH davlatlari o'zida G'arbning valyuta siyosati ta'sirini sezmoqda. Hali xalqaro valyuta munosabatlarida ishtirok etishning muqobil shakllarini qo'llash yo'llarini izlash lozim. Bunda esa rivojlanayotgan mamlakatlar malakasi qo'l keladi.

9.2.Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari

Jahon iqtisodiyatida xalqaro valyuta tizimi dinamik rivojlanib boruvchi tizimdir. U evolyusion rivojlanish bosqichlarda doimo o'zgaradi va rivojlandi. O'zining evolyusion rivojlanishida Xalqaro valyuta tizimi to'rtta xalqaro valyuta tizimlarini o'zida namoèn qiluvchi to'rt bosqichni bosib o'tgan. Xalqaro valyuta tizimida oltin standart deb ataluvchi birinchi tizim stixiyali ravishda XIX asr oxirida vujudga keldi. Unda qator davlatlarning valyutalari o'z davlatlarining ichki bozorida erkin ravishda oltinga tenglashtirilgan.

Oltin standart tizimi quyidagilar bilan ajralib turgan:

- valyuta birligi ma'lum miqdorda oltin qiymatiga egaligi bilan;
- valyutaning oltinga konvertasiyalanishi alohida bir davlatning ichida ham tashqarisida ham ta'minlanganligi bilan;
- oltin quymalar erkin ravishda tangalarga almashtirilishi mumkin, oltin erkin eksport va import qilinadi, xalqaro oltin bozorlarida sotilishi bilan;
- milliy oltin zaxirasi va ichki pul taklifi o'rtasida kuchli nisbatning saqlanishi bilan.

Oltin standartga asoslangan xalqaro hisob-kitoblar mexanizmi qayd qilingan kursni o'rnatadi. Oltin tanga, oltin èmbi, oltin deviz standartlari oltin standartning turlaridir. Oltin standartning bir turidan ikkinchisiga evolyusion o'tishi xalqaro kapitalistik tizimining rivojlanishi mobaynida ro'y bergan edi.

Kapitalistik xo'jalik faoliyatining asta-sekin murakkablashuvi, jahon xo'jaligi aloqalarining kengayishi va chuqurlashishi, davriy ro'y berib turgan iqtisodiy inqirozlar iqtisodiyatni tartibga solishni, davlatning iqtisodiy jaraènlarni boshqarishga aralashuvini kuchaytirishni ob'ektiv zaruriyatga aylantirdi. Davlatning iqtisodiyatga aralashuvining kuchayib borishi bilan erkin raqobatchilik kapitalizm rivojlanishining alomatlariga javob beruvchi oltin standarti mexanizmi bilan aniqlanadigan valyuta kurslari tizimlari ham o'zgarib boshladi.

Ikkinchi tizim - oltin-deviz standarti Genyua konferensiyasi (1922 y.) qarorlari natijasida vujudga keldi. Keyinchalik u ko'pchilik kapitalistik davlatlar tomonidan tan olindi. Bunda banknotalar oltin emas, balki keyinchalik oltinga almashtirilishi mumkin bo'lgan boshqa davlatlar deviziga (banknota, veksell, cheklar) almashtirilgan. Deviz valyuta sifatida dollar va funt sterling tanlandi. Oltin-deviz standarti amalda tartibga soluvchi valyuta kurslari standarti tizimini oltin valyuta standarti tizimiga o'tish bosqichi bo'ldi. Oltin-valyuta standarti tizimi 30-yillarda tashkil topdi va 50-yillar oxirida to'liq shakllandi. Bu tizim sharoitida kog'oz pullar oltinga almashtirilmaydigan bo'ldi. 1944 yilda bo'lib o'tgan Bretton-Vuds (AQSh) xalqaro konferensiyasida bu tizim huquqiy maqomni oldi. BrettonVuds valyuta tizimining

o'ziga xos tomonlari quyidagilardan iboratdir:

- oltin davlatlar orasida yakuniy pul hisob-kitoblari funksiyasini saqlab qoldi;
- oltin bilan bir qator turli davlatlar valyutalari qiymati o'lchovi, shuningdek to'lovning xalqaro kredit vositasi sifatida tan olingan AQSh dollari rezerv valyuta bo'ldi;
- dollar boshqa davlatlarning markaziy banklari va hukumat idoralari tomonidan AQSh xazinasida 1 troya unsiyaga (31,1g.), ya'ni 35 dollarga teng bo'lgan kurs (1944) bo'yicha oltinga almashtirilgan. Bundan tashqari hukumat organlari va xususiy shaxslar oltinni xususiy bozorda sotib olishlari ham mumkin bo'lgan. Oltinning valyuta qiymati rasmiy qiymat asosida shakllanib bordi va u 1968 yilgacha sezilarli o'zgarmadi;
 - valyutalarni bir-biriga tenglashtirish. Ularning o'zaro almashuvi oltin va dollarda belgilangan rasmiy valyuta paritetlar asosida amalga oshirilgan;
 - har bir davlat o'z valyutasining boshqa valyutaga nisbatan kursini barqaror saqlashi kerak bo'lgan. Valyutalarning bozordagi kurslari qayd qilingan oltin èki dollar paritetidan u èki bu tomonga 1% dan ortiq o'zgarish kerak edi. Paritetlarning o'zgarishi to'lovlar balansining doimiy buzilishi sodir bo'lganda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan;
 - valyuta munosabatlarini davlatlararo tartibga solish asosan BrettonVuds konferensiyasida tashkil qilingan Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) orqali amalga oshirildi. U a'zo davlatlar tomonidan rasmiy valyuta paritetlari, kurslari va o'zaro erkin valyuta almashtirishga amal qilishlari ta'minlangan.

Bretton-Vuds kelishuvi xalqaro valyuta tizimining rivojlanishini eng muhim bosqichi hisoblanadi. Birinchi marta xalqaro valyuta tizimi hukumatlararo kelishuvlarga asoslana boshladi. Oltin-dollar standarti tizimini mustahkamlagan Bretton-Vuds tizimi xalqaro savdo oborotining kengayishda, sanoati rivojlangan davlatlar ishlab chiqarishining o'sishida ham muhim rol o'ynadi.

60-yillarning oxiriga kelib Bretton-Vuds tizimi jahon xo'jaligining kuchayaётgan baynalminallashuvi bilan, transmilliy korporatsiyalarining valyuta sohasidagi faol chayqovchilik faoliyati bilan qarama-qarshi chiqa boshladi. Oltin-dollar standarti rejimi amalda asta-sekin dollar standarti tizimiga aylana boshladi. Shu bilan birga 60-yillar oxirida dollarning jahondagi mavqei G'arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiyaning iqtisodiy quvvati va ta'sir doirasini oshishi natijasida sezilarli èmonlashdi.

AQShdan tashqaridagi dollar zaxiralari jahon iqtisodiyatida juda katta summada bo'lib, yirik yevrodollar bozorini tashkil qilgan edi. AQSh to'lov balansining kamomadi (defisiti) mumkin bo'lgan normalardan ortib bordi. Bretton-Vuds tizimining dollarni oltinga aylantirish haqidagi talabi AQSh uchun og'irlik qilib qoldi, chunki o'z zaxiralari hisobidan oltinning past narxini saqlab turishi kerak edi. 70-yillar boshida Bretton-Vuds tizimi amalda o'z faoliyatini to'xtatdi. AQSh dollarni oltinga rasmiy narxlarda almashtirishdan bosh tortdi. Natijada jahon bozorlarida oltinning bahosi keskin ko'tarilib ketdi.

1976 yilda Kingstonda (Yamayka) bo'lib o'tgan XVFning navbatdagi majlisida dunèda xalqaro valyuta tizimining asoslari aniqlandi. Yamayka kelishuvidan kelib chiqqan holda xalqaro valyuta mexanizmini tashkil etuvchilar deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Oltinning qiymat o'lchovi va valyuta kurslarini hisoblashning boshlang'ich nuqtasi sifatidagi vazifasi bekor qilindi. Oltin erkin narxli oddiy tovarga aylanadi. Shu bilan bir qatorda u alohida likvidli tovar bo'lib ham qoldi. Ya'ni, zarur bo'lganda oltin sotilishi mumkin, olingan valyuta esa to'lov uchun ishlatilishi mumkin bo'lib qoldi.

2. Asosiy zaxira valyuta qilish va boshqa rezerv valyutalarning rolini kamaytirish maqsadida SDR (Special drawing rights - SDR) - —maxsus o'rnini olish huquqill standarti kiritildi.

3. Davlatlarga valyuta kursining xohlagan rejimini tanlab olish huquqi berildi. Davlatlar o'rtasidagi o'zaro valyuta munosabatlari ularni milliy pul birliklarining suzuvchi kursiga asoslanadigan bo'ldi.

Xalqaro moliyaviy qonunlarda kurslarning o'zgarishi ikki asosiy omil bilan belgilanadi:
a) davlatlarning ichki bozorlarida valyutalarning real qiymatlari nisbati bilan;
b) xalqaro bozorlarda milliy valyutalarga bo'lgan talab va takliflar nisbati bilan.

“Valyuta xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etadi quyidagi xususiyatlar asosida: 1) tovarlar narxini hisobga olish birligi vazifasini bajaradi...; 2) xalqaro bozorda tovar ayirboshlashda vositachilik qiladi...;3) jamlash vositasi sifatida ishlatiladi..; 4) xalqaro to'lov vositasi sifatida foydalaniladi...5) ilgari oltin tarkibiga ega bo'lgan valyutalar rol o'ynagan milliy boylik o'lchovi va urush tovonlarini to'lash”(Абдурахманова, 2021, с.292).

9.3. Valyuta kursi turlari va unga ta'sir etuvchi omillar

Valyuta so'zi italyanча valuta so'zidan olingan bo'lib, qiymat degan ma'noni anglatadi. Har qanday mamlakatning milliy pul birligi uning milliy valyutasi hisoblanadi.

«Milliy valyuta - bu mamlakatning pul birligi ichki muomalada ham, xalqaro hisob-kitoblarda ham foydalaniladi. Chet el valyutasi - bu xorijiy davlatlarning pul birliklari, muomalada va yuridik to'lovda bu mamlakatlar»(Абдурахманова, 2021, с.285).

Xalqaro amaliyotda valyutalarning quyidagi turlari mavjud:

- * Erkin ishlatiladigan valyuta (freely usable currency) – to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limida valyutaviy cheklashlar bo'lmagan mamlakatlarning milliy valyutalari.
- * Qattiq valyuta (hard currency) – iqtisodiy va siyosiy jihatdan arqaror hisoblangan mamlakatlarning almashuv kursi barqaror bo'lgan valyutalari.
- * Yumshoq valyuta (soft currency) – xalqaro miqyosda to'lov vositasi vazifasini bajara olmaydigan, ya'ni tashqi konvertirlikka ega bo'lmagan valyutalar.
- * Xalqaro rezerv valyutalar (reserve currency) – dunyoning barcha mamlakatlarida xalqaro to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan yetakchi valyutalar.

Yetakchi valyutalarga “xalqaro rezerv valyuta” degan maqomni Xalqaro valyuta fond (XVF) ekspertlari beradi. XVF mezonlari bo'yicha, xalqaro rezerv valyuta deganda davlatlarning xalqaro zaxiralari nominali aks ettiriladigan valyuta tushuniladi.

XVF tomonidan hozirgi kunda AQSh dollari (USD), yevro (EUR), Buyuk Britaniya funt sterlingi (GBP), Yaponiya (JPY) ieni va Shveysariya frankiga.

«Keng qo'llaniladiganlar "Katta beshlik" valyutalari - AQSh dollari, evro, Shveysariya franki, Yapon ienasi, Britaniya funti va boshqalar bepul konvertatsiya qilinadigan valyutalar»(Абдурахманова, 2021, с.288).

Banklar tomonidan amalga oshiriladigan muddatli operatsiyalar forvard operatsiyalari deb yuritiladi.

Forvard operatsiyalaridagi valyuta kursi spot shartnomasi bo'yicha kursdan farqlanadi. U mukofot va chegirma usuli bilan o'rnatiladi. Mukofot forvard kursi spot kursidan ko'pligini bildiradi. Forvard marjasi, ya'ni spot va forvard orasidagi farq jahon kapitali bozorida depozitlarning fond stavkalariga bog'liq bo'ladi. Depozit foizi kam davlatlarda valyuta kursi mukofot bilan, depozit foizi katta davlatlarda valyuta kursi chegirma bilan belgilanadi.

Kassa va forvard operatsiyalarini muvofiqlashtiruvchi valyuta shartnomalaridan biri svop shartnomasidir. Bu shartnoma ikki valyuta savdo-sotig'ini darhol amalga oshirish sharti (spot) va shu bilan birga unga qarshi muddatli shartnomani tuzishni anglatadi. Masalan, dollarni markaga spot shartida sotish va shu zahoti uni sotib olish bo'yicha muddatli shartnomani tuzish yoki unga teskari operatsiya dollarni markaga sotib olish spot shartnomasi va uni sotish bo'yicha muddatli shartnomani tuzish kiradi.

Forvard shartnomasi turlaridan biri opsiyon shartnomasidir. Opsiyon shartnomasining o'ziga xos xususiyati bu sotib oluvchining valyutani emas, balki uni sotib olish huquqini sotib olishidir. Bunda sotuvchi ma'lum valyutani ma'lum miqdorda sotish yoki sotib olish

majburiyatini oladi. Sotib oluvchi esa shu miqdordagi valyu-tani sotish yoki sotib olish huquqidan foydalanmaslik huquqiga ham ega. U bu uchun sotuvchiga opsion mukofotini to'laydi. Agar sotib oluvchi o'z huquqidan foydalanmasa, u mukofot summasida zarar ko'radi.

«Spot», forvard va opsion shartnomalari banklararo bozor-larda va birjalarda amalga oshiriladi. Birjada amalga oshirila-digan ixtisoslashgan shartnomalarga f'yuchers shartnomalari kira-di. F'yuchers operatsiyalari f'yuchers shartnomalarini sotish va sotib olish bo'yicha tuziladi. F'yuchers operatsiyasi valyutani sotib olish yoki unga qarama-qarshi operatsiya bilan tugaydi. F'yuchers operatsiya-sining natijasi bu yutqizgan tomonning yutgan tamonga shartnoma tuzilgan va amalga oshirilgan vaqt orasidagi kurs farqini to'la-shidir. Bu farqni birjaning hisob-kitob (kliring) palatasi to'lab beradi. F'yuchers shartnomalari imzolanishi zahoti birjaning hisoblash markazida ro'yxatdan o'tadi.

F'yuchers va boshqa muddatli shartnomalarining maqsadi valyuta operatsiyalarini xedjirlash yoki chayqovchilik asosida foyda olishdir. Banklar o'z mijozlarining valyuta tavakkalchiliklarini o'z zim-masiga olsalar (forvard operatsiya o'tkazganda), unga teskari f'yuchers bitimi yordamida bu tavakkalchiliklarni kamaytiradi (yo'qotadilar). F'yuchers bitimi tugaganda esa ular real tovarlar bitimidan ko'rgan zararni, valyuta kursi orasidagi farq orqali qoplash im-koniyatiga ega bo'ladilar.

Valyuta kursi orasidagi farq tufayli foyda olish maqsadida banklar valyuta arbitrajini o'tkazishadi. Bu valyutani sotish yoki sotib olish bo'lib, keyinchalik teskari bitim qilib, valyuta kurs-lari farqi yordamida foyda olish maqsadida o'tkazishni ifodalaydi. Arbitraj ikki xil, ya'ni joylashuvga ko'ra va vaqtli bo'ladi. Joylashuvga ko'ra arbitraj banklarning turli valyuta bozorlari-dagi kurs farqi orqali foyda olishini bildiradi. U valyuta tavak-kalchiligi bilan bog'liq emas, chunki valyuta savdosi bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Masalan, bank vakili Gongkokda valyutani sotib oladi (sotadi) va shu vaqtning o'zida u o'zining N'yu-Yorkdagi korrespondenti orqali shu valyutani sotadi (sotib oladi).

Vaqtli arbitraj vaqt o'tishi bilan valyuta kursi orasidagi farq orqali foyda olishdir. Valyuta arbitraji spot va forvard sharoitida amalga oshirilishi mumkin va bu turdagi operatsiyalarda valyuta tavakkalchiligi mavjud bo'ladi.

Bank valyuta operatsiyalarini bajarganda unga o'z valyuta resurslarining bir qismini sarflaydi. Bunda bankning xorijiy valyuta-lar bo'yicha majburiyat va talablari orasidagi nisbat o'zgaradi. Bankning xorijiy valyutalarni sotish va sotib olish jarayonida valyutalar bo'yicha talab va majburiyatlar nisbatining holati bank-larning valyuta holati deyiladi. Valyuta bo'yicha majburiyatlar va talablar teng bo'lgan holat yopiq, teng bo'lmagani ochiq valyuta holati deyiladi.

Ochiq valyuta pozitsiyasi – bank valyuta bo'yicha qarshi bitimni amalga oshirganda valyuta kursining o'zgarishi natijasida oldingi sotgan valyutasiga nisbatan kam valyuta olishi, ya'ni zarar ko'rishini mumkin. Shuning uchun bu holatda valyuta kursining o'zgarishi valyu-ta tavakkalchiligining vujudga kelishiga olib keladi.

Ochiq valyuta pozitsiyasi uzoq yoki qisqa bo'lishi mumkin.

Qisqa valyuta pozitsiyasida sotilgan valyuta bo'yicha majburiyat-lar, sotib olingan valyuta bo'yicha talablardan oshadi, ya'ni xorijiy valyutani sotish uni sotib olishdan yuqori bo'ladi. Uzoq holatda esa aksincha xorijiy valyutani sotib olish uni sotishdan yuqori bo'ladi, ya'ni sotib olingan valyuta bo'yicha talablar uni sotish majburiyat-laridan ko'p bo'ladi. Bu pozitsiyaslarni quyidagi misollar bilan yaqqol-roq tushintirish mumkin.

Masalan, ertalab bankda yapon ieni va funt sterling bo'yicha yopiq valyuta holati bo'lsin. Bank ochilishi bilan mijoz bankka iena evaziga funt sterling sotish to'g'risida murojaat qilsin. Agar shu paytda 1funt sterling kursi = 172 iena bo'lsa, bank mijozga 172 valyuta kursi bo'yicha 1 million funt sterling sotsin.

Valyuta birjasi yo'q davlatlarda valyuta bozori qatnashchilari banklararo kurslardan foydalanadi. Banklararo bozordagi o'rtacha kurs bank mijozlari uchun valyuta kursini

o'rnatishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Valyuta birjalari mavjud davlatlarda banklararo kotirovkalar banklarning to'lov aylanishi, to'lovga layoqatligini hisobga olgan holda, rasmiy birja kotirovkalari atrofida o'zgarib turishi mumkin. Bunday banklarda rasmiy birja kotirovkasi ular-ning mijozlari uchun valyuta kurslarining asosi bo'lib xizmat qiladi. Erkin valyuta bozorida uning har bir elementlari (birjadagi va birjadan tashqaridagi) bir-biriga ta'sir etadi va ulardagi valyuta kotirovkalari o'zaro bog'liq bo'ladi.

Valyuta bozorida valyutani kotirovka qilishning ikki usuli mavjud: to'g'ri va egri. Ko'pchilik davlatlarda to'g'ri kurs qo'llaniladi. Bu usulning mohiyati shundaki, xorijiy valyuta birligining kursi to'g'ridan-to'g'ri milliy valyutada ifodalanadi.

Egri kotirovkada milliy valyuta birligi ma'lum miqdordagi xorijiy valyutada ifodalanadi. Bu usul (egri kotirovka) Buyuk Britaniyada, 1987 yil-dan esa qisman AQShda qo'llaniladi. Banklararo valyuta bozorlarida valyuta kursining kotirovkasi ko'proq AQSh dollariga nisbatan belgilanadi. Bu hol dollarning xalqaro to'lovlarda ko'p qo'llanilishi va zaxira vositasi sifatida saqlanishi bilan bog'liq. Savdo-sanoat sohasida faoliyat olib boruvchi mijozlar uchun valyuta kotirovkalari amalga oshirish kross-kursga asoslanadi.

Kross-kursda ikki valyutaning kursga asoslangan nisbati uchinchi valyutaga nisbatan aniqlanadi. Masalan, O'zbekiston Markaziy banki so'mning yapon ieniga nisbatan kursini aniqlamoqchi deylik. Bu holda ienaning so'mga nisbatan kursi dollarga asoslangan holda aniqlanadi. Aytaylik,

1250 so'm 1 dollar

1 dollar 115 yapon yeni desak,

u holda kross kursda 1 yapon yen necha so'm turishini

1 yapon yen $1250 \text{ so'm} \times 1 / 1 \times 115 = 10,87 \text{ so'm}$, yoki 10 yapon yeni 100 so'm

87 tiyinga teng (<https://cbu.uz>).

Kross kurs. To'g'ridan-to'g'ri almashtirib bo'lmaydigan valyuta turlari mavjud. Masalan, siz evroni Kanada dollariga almashtira olmaysiz. Keyin valyuta juftlarining kotirovkalari har bir valyutaning uchinchisiga, masalan, dollarga nisbatan kursi asosida aniqlanadi. Bu o'zaro nisbat deb ataladi.

Joriy va forvard kursi. Agar zudlik bilan valyuta sotib olishingiz kerak bo'lsa, joriy kursdan foydalaniladi - tranzaksiya vaqtida valyutaning real vaqtidagi narxi. Kelajakda ayirboshlashni yoki bitim tuzishni rejalashtirganlarida, investor bank bilan shartnoma tuzadi, bu erda valyuta kursi ma'lum bir sana uchun belgilanadi. Bu kurs forvard kursi deb ataladi. Ruxsat etilgan va suzuvchi stavkalar.

Belgilangan valyuta kursi har kuni Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Markaziy banklar aniq qiymatni belgilashi yoki valyuta koridorini – valyuta kursi o'zgarishining yuqori va quyi chegaralarini belgilashi mumkin. Suzuvchi kurs valyuta bozorida sotib olish va sotish jarayonida shakllanadi, shuning uchun u kuchli va oldindan aytib bo'lmaydigan darajada o'zgarib turadi.

Valyuta kursiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar:

- inflyatsiya darajasi
- to'lov balansining holati
- foiz stavkalari
- valyuta bozorlarining holati
- xalqaro hisob-kitoblarda valyutadan foydalanishning mashhurligi
- valyutaga bo'lgan ishonch darajasi
- davlatning pul-kredit siyosati (Абдуллаева,2003,б.120).

Inflyatsiyaning asosiy sababi pul massasining doimiy o'sib borishidir. Inflyatsiyaning o'sishining boshqa sabablari ham bor, masalan, resurslar narxining oshishi, taklifning o'zgarmagan holda tovarlar guruhlariga talabning keskin oshishi.

Inflyatsiya uzoq muddatda valyuta kursiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya valyutani qadrsizlantiradi, shuning uchun inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakat valyutasi

inflyatsiya darajasi past bo'lgan mamlakat valyutasiga nisbatan uzoq muddatda pasayadi.

Qisqa muddatda inflyatsiya ist'emol narxlar indeksiga teskari ta'sirini ko'rsatishi mumkin: agar inflyatsiya ko'tarilsa, u holda Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini oshiradi, bu milliy valyutaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun inflyatsiyaning valyuta kursiga ta'sirini aniq ko'rish kiyin.

Valyuta kursining shakllanishi milliy va jahon iqtisodiyoti va siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning murakkab jarayonidir, shuning uchun prognozlashda valyuta kotirovkalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan turli omillar hisobga olinadi:

inflyatsiya darajasi. Mamlakatda narxlar darajasining oshishi uning pul birligining xarid qobiliyatining pasayishiga va natijada valyuta kursining pasayishiga olib keladi.

Foiz stavkalari. Turli mamlakatlarning markaziy banklari qayta moliyalash stavkasini o'zgartirish orqali milliy valyuta kursiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Foiz stavkalarining oshishi mamlakatning pul-kredit siyosatining keskinlashuvi bilan bog'liq bo'lsa, valyuta kursi ko'tariladi, lekin agar kurs yuqori inflyatsiya tufayli ko'tarilsa, u holda kurs pasayadi.

To'lov balansining holati. Mamlakatning to'lov balansi - bu mamlakat tomonidan qabul qilingan va to'langan to'lovlardagi pul oqimi. To'lov balansining profitsit bilan milliy valyutaga bo'lgan talabi ortadi va shu orqali uning kursi mustahkamlanadi. Passiv balansda xorijiy valyutaga talabning oshishi kutilmoqda, bu esa milliy valyuta kursining pasayishiga olib keladi.

Joriy operatsiyalar balansi quidagi 2 qismlardan iborat: savdo balansi, xizmatlar va notijorat mazmundagi to'lovlar balansi

Bu mamlakat tovarlarining jahon bozorlarida raqobatbardoshligi. Yuqori raqobatbardoshlik mamlakat eksporti hajmining oshishiga, shunga mos ravishda chet el valyutasining kirib kelishiga va o'z valyutasining qadrlanishiga xizmat qilmoqda.

Spekulyativ valyuta operatsiyalari va moliya tashkilotlarining faoliyati. Agar biron sababga ko'ra valyuta kursi tushib qolsa, u holda valyuta risklarini tenglashtirish maqsadida yirik moliyaviy tashkilotlar ushbu valyutani sotadilar va shu bilan Forex bozorida o'rnini yanada zaiflashtiradi.

Energiya tashuvchilar va boshqa xom ashyo narxlari. Agar mamlakat iqtisodiyoti diversifikatsiya qilinmasa va asosan xomashyo eksportiga bog'liq bo'lsa, xomashyo (neft, gaz, oltin va boshqalar)ning jahon narxlarining pasayishi natijasida milliy valyutaning kursi pasayadi.

Bundan tashqari, valyuta kurslariga turli mamlakatlardagi siyosiy vaziyat, urushlar, kataklizmlar ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha, kutilmagan fundamental yangiliklar ommaviy vahima va shunga mos ravishda valyuta kurslarining keskin o'zgarishiga olib keladi, ular oxir-oqibat yangi darajalarda barqarorlashadi.

9.4. Xalqaro hisob-kitoblar va ularning shakllari

Xalqaro hisob-kitoblarga turli davlatlarning kompaniyalari, korxonalari va jismoniy shaxslari o'rtasidagi shartnomalar bo'yicha moliyaviy majburiyatlar bilan bog'liq operatsiyalar kiradi. Bunday to'lovlarning o'ziga xos xususiyati (ichki hisob-kitoblarga nisbatan) ularning tarkibida turli valyutalarni ayirboshlash bosqichining mavjudligidir. Turli mamlakatlar vakillari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy operatsiyalarni ro'yxatga olish tomonlar o'rtasida to'lov valyutasi turi bo'yicha kelishuvni o'z ichiga oladi. Bu bitim taraflaridan biri vakili bo'lgan mamlakatning milliy valyutasi yoki uchinchi davlatning valyutasi bo'lishi mumkin. Moliyaviy resurslarning xalqaro muomalasida chet el valyutasi naqd pul emas, balki titul birliklari, cheklar yoki pochta jo'natmalari rolini o'ynaydi. Zamonaviy dunyoda xalqaro to'lovlarning asosiy ulushi AQSh valyutasida amalga oshiriladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, savdo operatsiyalarining yarmi AQSH dollarida, shuningdek, valyuta bozori operatsiyalarining 4/5 qismi amalga oshiriladi. Bundan tashqari, XVF mamlakatlari

valyuta zaxiralarning 2/5 qismi ham ushbu valyutada ifodalanadi.

Barcha hisob-kitoblar umumiy qa Xalqaro to'lov shakllari qanday:

Bank o'tkazmalar. Bu bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ko'rsatiladigan bankning pullik xizmatidir. Ushbu hisob-kitob shakli uchun asosiy hujjat mijozning to'lov topshirig'i hisoblanadi. To'lov topshirig'ida mijoz tegishli valyutadagi summani ko'rsatadi, u bankka o'zining savdo sherigi hisobiga o'tkazishni buyuradi.

Inkasso. Bu mijozning qarzdoridan mijoz tomonidan taqdim etilgan moliyaviy va/yoki tijorat hujjatlari asosida tegishli valyutadagi ma'lum miqdordagi pul mablag'larini undirish bo'yicha bank operatsiyasi.

«Inkasso topshiriqnomasi – mablag'lar oluvchining hisob varag'iga to'lovchining hisob varag'idan sozsiz tartibda mablag'larni hisobdan chiqarish to'g'risidagi bankka topshirigini anglatadi»(Mardonova, 2021, b.30).

Qarz miqdori, qarzdorning nomi, uning joylashgan joyi, to'lov rekvizitlari mijoz tomonidan bankka taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan.

Hujjatli akkreditiv. Bankning belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlar bo'yicha benefitsiar foydasiga to'lovni amalga oshirish majburiyatini ifodalaydi.

«Akkreditiv – mijozning topshirigiga ko'ra shartnoma bo'yicha uning kontragenti foydasiga berilayotgan bankning shartli pul majburiyatidir»(Mardonova, 2021, b.29). Akkreditiv bo'yicha to'lovni amalga oshiruvchi bank taqdim etilgan hujjatlarning to'liqligi va mazmunini akkreditiv shartlariga muvofiq tekshiradi.

Hisobni ochish. Eksport qiluvchi tovarni import qiluvchiga jo'natganda va xaridorga hisobvaraqa ochganda, hisobvaraqaqning debetiga qarz summasini kiritgan holda sheriklar o'rtasidagi hisob-kitoblar shaklini ifodalaydi. Yetkazib berilgan tovarlar uchun to'lovni olgandan so'ng, qarz yopiladi.

Kredit muomala va to'lov vositalaridan foydalanishni nazarda tutuvchi to'lovning kredit shakllari. Bularga **veksellar va cheklar** kiradi. Bundan tashqari, forfeyting va faktoring qo'llaniladi.

«Hisob – kitob cheki – bu mijozning xizmat ko'rsatuvchi bankka chek beruvchining hisob varag'idan chek qabul qiluvchining hisob varag'iga ma'lum miqdordagi mablag'larni utkazib berish uchun bankning maxsus blankasida bankka bergan topshirig'idir»(Mardonova, 2021, b.31).

Xalqaro amaliyotda to'lov tizimlarining SWIFT, FedWire, CHIPS, CHAPS, TARGET kabi turlari ajralib turadi. SWIFT global banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar hamjamiyatidir; FedWire AQSh Federal zaxira tarmog'ini ifodalaydi; CHIPS - Nyu-York xalqaro axborot tizimi, Londonda CHAPS avtomatik axborot tizimi. Bundan tashqari, Evropa Ittifoqida Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning ikkita mintaqaviy supertizimlari mavjud - TARGET2 va Evro I, ular real vaqt rejimida yalpi hisob-kitob tizimlarini birlashtiradi.

Elektron tizimlarning asosiy farqi hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi tomonlar sonidadir, masalan, SWIFT ikki tomonlama asosda bank xabarlarini uzatishni tashkil qiladi, FRS, CHIPS, CHAPS tizimlari to'lov majburiyatlarini tartibga soladi. SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunications) moliyaviy telekommunikatsiyalar sohasidagi yetakchi xalqaro tashkilot sifatida tan olingan.

SWIFT faoliyati ruxsatsiz kirishdan tez, yuqori sifatli, samarali, maxfiy va xavfsiz telekommunikatsiya xizmatlariga asoslangan. SWIFT banklar va moliyaviy ma'lumotlar almashinuvining shakllari va usullarini standartlashtirish uchun asosiy tizimdir. Tarmoq jismoniy, texnik va tashkiliy himoya usullarining ko'p darajali kombinatsiyasi bilan to'liq xavfsizlikni ta'minlaydi, taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liq xavfsizligi va maxfiyligini kafolatlaydi. Xabarni yetkazib berish muddati 20 minutni tashkil qiladi, lekin agar siz shoshilinch xabarni yetkazayotgan bo'lsangiz, uzatish vaqti 1-5 daqiqagacha qisqaradi, bu alohida aloqa kanallarining o'tkazish qobiliyatini qoplaydi. Pul mablag'larini o'tkazish va bank hisobvaraqlari qoldigi to'g'risidagi ma'lumotlarni yuborishdan tashqari, valyuta operatsiyalari SWIFT tomonidan tasdiqlanadi va bank hisob-kitoblari

inkasso, akkreditiv va qimmatli qog'ozlar savdosi orqali amalga oshiriladi. SWIFT tizimi hisob-kitob funksiyalarini ta'minlamaydi, chunki faqat bankning aloqa tarmog'i yanada takomillashtirish uchun mo'ljallangan. Barcha zarur to'lov topshiriqlari "loro" va "nostro" tegishli hisobvaraqlariga o'tkazma shaklida to'lanadi, bu amalda an'anaviy to'lov hujjatlaridan foydalanishdan farq qilmaydi.

Tayanch iboralar

Valyuta tizimining elementlari, xalqaro valyuta tizimi, rivojlanish bosqichlari, valyuta bozori, valyuta kursining turlari, valyuta riski, valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar, to'lov balansi, xalqaro to'lovlar va ularning shakllari.

Nazorat va muxokama uchun savollar

1. Valyuta tizimining iqtisodiy mohiyati.
2. Milliy valyuta tizimiga kanday elementlar kiradi?
3. Xalqaro valyuta tizimining kanday elementlari mavjud?
4. Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari kaysilar.
5. Parij valyuta tizimining o'ziga hos hususiyatlari.
6. Genuya pul tizimining o'ziga hos hususiyatlari.
7. Bretton-Vuds pul tizimining o'ziga hos hususiyatlari.
8. Yamayka valyuta tizimining o'ziga hos hususiyatlari.
9. Valyuta kursi turlari va unga ta'sir etuvchi omillar.
10. Xalqaro hisob-kitoblar va ularning shakllari qanday.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахманова, М.М. (2021). Деньги и банки [Учебник]. Ташкент: Иктисодиёт.
2. Абдуллаева, Ш.З. (2003). Пул, кредит ва банклар. Ташкент: Молия.
3. Mardonova, A.T. (2021). Pul va banklar. Samarqand: SamDU nashri.
4. Центральный банк Республики Узбекистан. Курсы валют. <https://cbu.uz>. Дата обращения 15 мая 2023 г.
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. Valyutani tartibga solish to'g'risidagi Qonun. <https://lex.uz> Дата обращения 15 мая 2023 г.
6. Rashidov, O.Yu. (2009). Pul kredit va banklar.[Darslik]. [15.05.2023]. <http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/10/9-y-Pul-kredit-va-banklar-darslik-O.YuRashidov-T.-2009-lotincha.pdf>